



**IJTIMOIIY TARMOQDA HUQUQBUZARLIKLARNI TARG'IB
QILUVCHI SAYTLAR VA KONTENTLARNI BLOKLASH HAMDA
MA'MURIY JAVOBGARLIK MASALASI**

Roximova Shirin Ollanazarovna

Aniq fanlar kafedrası dotsenti

Omondavlatova Madina Shodavlat qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 215-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20432204>

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqbuzarliklarni targ'ib qilishning huquqiy oqibatlari va ularga qarshi kurashish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqola davomida ijtimoiy xavfli kontentlarni internetda namoyish etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi masalasi ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi va Germaniya davlati tajribalari tahlil qilingan hamda ushbu tajribalar orqali milliy amaliyot uchun xalqaro tajriba qiyoslanib, kiberfazo xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, noqonuniy kontent, javobgarlik muqarrarligi, bloklash mexanizmlari, kiberxavfsizlik, raqamli huquq, huquqbuzarlik targ'iboti, axborot makoni, Germaniya tajribasi (NetzDG), Yevropa Ittifoqi yondashuvi (DSA).

**THE ISSUE OF BLOCKING SITES AND CONTENT PROMOTING
OFFENSES ON SOCIAL NETWORKS AND ADMINISTRATIVE
LIABILITY**

Abstract: This article analyzes the legal consequences of promoting offenses through social networks in the context of an information society and the mechanisms

Contact: 99 826 99 56





for combating them. The study examines the issue of the inevitability of liability for displaying socially dangerous content on the Internet. Furthermore, the experiences of the European Union and Germany are analyzed, through which a comparative analysis of international expertise and national practice is conducted. Finally, scientific and practical proposals for ensuring cybersecurity in cyberspace are put forward.


Keywords: Social networks, illegal content, inevitability of liability, blocking mechanisms, cybersecurity, digital law, promotion of offenses, information space, German experience (NetzDG), EU approach (DSA).

ВОПРОС БЛОКИРОВКИ САЙТОВ И КОНТЕНТА, ПРОПАГАНДИРУЮЩИХ ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ, И АДМИНИСТРАТИВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

Аннотация: В данной статье анализируются правовые последствия пропаганды правонарушений через социальные сети в условиях информационного общества и механизмы противодействия им. В ходе исследования рассмотрен вопрос неотвратимости ответственности за демонстрацию социально опасного контента в сети Интернет. Кроме того, анализируется опыт Европейского Союза и Германии, на основе которого проводится сравнительный анализ международного опыта и национальной практики, а также выдвигаются научно-практические предложения по обеспечению безопасности киберпространства.

Ключевые слова: Социальные сети, незаконный контент, неотвратимость ответственности, механизмы блокировки, кибербезопасность, цифровое право, пропаганда правонарушений, информационное пространство, опыт Германии (NetzDG), подход ЕС (DSA).

XXI asr global axborotlashuv asri sifatida insoniyat hayotining barcha





jabhalariga, shu jumladan, ijtimoiy munosabatlar tizimiga ham tub o'zgarishlar olib kirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot va axborot almashish maydoni, balki jamiyat ongiga, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashiga bevosita ta'sir o'tkazuvchi qudratli vositaga aylandi [1]. Biroq, virtual makonning rivojlanishi o'zi bilan birga yangi turdagi xavf-xatarlarni, xususan, turli g'ayriijtimoiy qilmishlarni targ'ib qiluvchi, zo'ravonlik, shafqatsizlik va yot g'oyalarni ideallashtiruvchi kontentlarning keng tarqalishini olib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlik imkoniyatining mavjudligi va axborotning cheksiz tezlikda tarqalishi "huquqbuzarliklar targ'iboti" tushunchasini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquqlarini virtual tahdidlardan himoya qilish funksiyasini yanada murakkablashtirmoqda [2]. Umuman olganda, noqonuniy kontent — bu mazmuni jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi, tarqatilishi tegishli javobgarlikka sabab bo'ladigan raqamli axborotdir (matn, audio, video, tasvir).

Ushbu noqonuniy kontentlarni yirik uchta guruhga taqsimlab o'rganish mumkin:

- **Axloqiy me'yorlarga zid:** (pornografik materiallar, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etish).
- **Shaxs huquqlarining buzilishi:** (tuhmat, haqorat va shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlarni ruxsatsiz tarqatish).
- **Intellektual mulk ob'ektlari:** (mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni ruxsatsiz, ya'ni piratlik yo'li bilan tarqatish).

Noqonuniy sayt esa asosiy faoliyati jamiyat uchun xavfli axborotlarni tarqatishga yo'naltirilgan yoki tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) xizmat ko'rsatuvchi platformadir. Bunga giyohvandlik vositalari savdosiga ixtisoslashgan saytlar (narkosaytlar), fishing (Phishing) va kiber-firibgarlik saytlari, noqonuniy





qimor va bukmekerlik platformalari hamda dezinformatsiya tarqatuvchi manbalarni misol qilib aytishimiz mumkin. Ushbu vositalarning maqsadi o'ziga foydalanuvchilarni jalb qilib pul ishlash va ularni tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga qaram qilib qo'yishdir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlar tarkibida qimor bilan bog'liq firibgarlik hamon yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etmoqda. Shuningdek, axborot makonida giyohvandlik vositalarining tarqalish uslubi ham tubdan o'zgarib, Telegram, Instagram kabi messenjerlar orqali amalga oshirilmoqda. Mijozlarning onlayn to'lov qilishlari va "zakladka" tizimidan foydalanishlari anonimlikni saqlab qolishga yordam berib, huquq-tartibot organlari faoliyatida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shunga qaramay, hozirda bunday targ'ibot bilan shug'ullanadigan minglab kanal va guruhlar faoliyati cheklanmoqda.

Respublikada ijtimoiy tarmoq orqali namoyon etilayotgan yot g'oyalar va turli huquqbuzarlikka targ'ib qiluvchi sayt hamda kontentlarga qarshi kurashish maqsadida mutasaddi idoralar doimiy ravishda noqonuniy tarmoqlarni skanerlash amaliyotini olib bormoqda. Ushbu soha bo'yicha chet el tajribalarini tahlil qiladigan bo'lsak, Yevropa Ittifoqi (YI) va Germaniya noqonuniy kontentlar, ayniqsa, giyohvandlik targ'iboti va onlayn qimor o'yinlariga qarshi kurashda dunyodagi eng ilg'or va tizimli tajribaga ega mintaqalar hisoblanadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, ularning tajribasi "faqat bloklash" emas, balki "platformalar javobgarligi" va "moliyaviy nazorat" kabi konseptual tamoyillarga asoslangan [3].

Yevropa Ittifoqi amaliyotiga murojaat qilsak, 2024-yildan boshlab to'liq amaliyotga joriy etilgan raqamli xizmatlarni tartibga soluvchi yagona mexanizm (DSA — Digital Services Act yondashuvi) Yevropadagi asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu xalqaro standartlarga ko'ra, Google, TikTok, Meta va Telegram kabi yirik platformalar o'z tarmoqlaridagi noqonuniy kontent (narkotik savdosi, turli noqonuniy qimor o'yinlari) uchun bevosita javobgar sanaladi. Maxsus tartib-





qoidalarga binoan, agar ular ijtimoiy xavfli axborotni xabar qilingandan so'ng 24 soat ichida o'chirmasa, ularning global aylanmasining 6 foizi miqdorida moliyaviy sanksiyalar (jarima) qo'llaniladi.

Germaniya davlati esa internetni tartibga solishda Yevropadagi eng "qattiqqo'l" davlat sifatida e'tirof etiladi. Xususan, mamlakatning Federal jinoiy politsiyasi (BKA) "Darknet" tarmog'idagi eng yirik narkoplatformalarni (masalan, Hydra va Hansa) yo'q qilishda yetakchi amaliyotga ega. Mutaxassislar ular o'z amaliyotida "Honeypot" (asal idishi) usulidan faol foydalanishini ta'kidlashadi — ya'ni, politsiya noqonuniy saytni o'z nazoratiga oladi, lekin uni darhol o'chirmaydi, aksincha, xaridorlar va sotuvchilar tarmog'ini to'liq aniqlash uchun ma'lum muddat nazorat ostida "ishlatib" turadi [4].

Germaniya tajribasining yana bir afzal tomoni shundaki, onlayn qimor va bukmekerlik yo'nalishi bo'yicha maxsus litsenziyalash tizimi hamda barcha qimor o'yinchilari uchun "OASIS" yagona bloklash platformasi yaratilgan. Agar inson o'zini qimorga qaram deb hisoblasa yoki uning yaqinlari tegishli tartibda xabar bersa, ushbu shaxs mamlakatdagi barcha (onlayn va oflayn) qimorxonalardan umrbod yoki ma'lum muddatga bloklanadi. Bundan tashqari, bunday o'yinlar uchun oylik depozit (pul tikish) limiti 1000 yevro miqdorida qat'iy cheklab qo'yilgan.

Yuqoridagi xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, respublika hududida moliyaviy blokirovka amaliyoti, ya'ni noqonuniy qimor saytlari va narkosavdo platformalariga xizmat ko'rsatuvchi bank karta raqamlari hamda elektron hamyonlarni avtomatik bloklash eng maqbul yechimlardan biridir. Shu bilan birga, giyohvandlik vositalari savdosida ishlatiladigan kriptovalyuta hamyonlarini kuzatish va ularni "qora ro'yxat"ga (blacklist) tushgan birjalarda naqdlashtirish imkoniyatini cheklash tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda kiberjinoyatchilar yuzlab "droplar" (begona shaxslarning bank kartalari) orqali noqonuniy mablag'larni aylantiradi. Shuning uchun, moliya tizimidagi sun'iy





intellekt (AI) algoritmlari yordamida shubhali, bir xil takrorlanuvchi va mantiqsiz o'tkazmalarni (P2P) inson omilisiz, soniyalar ichida aniqlab, bloklash xususiyatini joriy etish zarur.

Narkosavdo va yirik kiberjinoyatlarda kriptovalyuta asosiy moliyaviy vosita hisoblanadi. Ma'lumki, kriptovalyuta manzillari har doim blokcheyn tarmog'ida ochiq turadi. Agar muayyan hamyon noqonuniy faoliyatga aloqador deb topilsa, yirik birjalar (Binance, Bybit va h.k.) ushbu hamyondan mablag' qabul qilmasligi kerak. Jinoyatchi kripto-aktivga ega bo'lishi mumkin, lekin uni oddiy fiat pulga (so'm, dollar) aylantira olmasa, bu mablag' uning uchun shunchaki foydasiz "raqam"ga aylanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, "nopok" hamyondan chiqqan har bir tranzaksiyani blokcheyn tahlili (masalan, Chainalysis yoki Crystal kabi vositalar) orqali kuzatish, jinoyatchilar guruhining barcha a'zolarini zanjir bo'ylab aniqlash va jinoiy sxemalarni fosh etish imkonini beradi [5].

Umuman olganda, respublikamizda huquqbuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari sezilarli darajada qat'iylashtirilgan bo'lishiga qaramay, faqatgina jazo qo'llash yoki bloklash orqali muammoni to'liq hal qilib bo'lmaydi. Sababi, yopilgan resurslar o'rniga juda tez fursatda ularning "ko'zgu" (mirror) saytlari paydo bo'ladi. Shu sababli, nafaqat texnik va raqamli choralar, balki jamiyatda fuqarolarning raqamli axborotni to'g'ri idrok etish madaniyatini yuksaltirish maqsadga muvofiqdir. Aholining, xususan yoshlarning huquqiy va axborot ongi yuqori darajada emasligi ularning turli qimor o'yinlari hamda xavfli kontentlarga jalb qilinishini osonlashtiradi. Sohada profilaktik ta'sirni kuchaytirish va immunitetni shakllantirish uchun "Kibersavodxonlik haftaligi" kabi tizimli targ'ibot ishlarini tashkil etish kutilgan ijobiy samarani beradi.

REFERENCES:

1. Хабриева Т. Я., Черногор Н. Н. Право в условиях цифровой реальности // Журнал российского права. – 2018. – № 1. – С. 85–102.





2. Талапина Э. В. Право и цифровизация: новые вызовы и перспективы // Журнал российского права. – 2018. – № 2. – С. 5–17.
3. Tworek H., Leerssen P. An Analysis of Germany's NetzDG Law // Transatlantic Working Group. – 2019. – P. 1–28. URL: https://www.ivir.nl/publicaties/download/NetzDG_Tworek_Leerssen_April_2019.pdf
4. Gorwa R. What is platform governance? // Information, Communication & Society. – 2019. – Vol. 22. – № 6. – P. 854–871.
5. Suzor N. P., Dragiewicz M., Harris B., Gillett R., Burgess J., Van Geelen T. What do we mean when we talk about transparency? Toward meaningful transparency in commercial content moderation // International Journal of Communication. – 2019. – Vol. 13. – P. 1526–1543.

